


2020-yil yanvar-noyabr oylari davrida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatida jami **5496,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019-yilning mos davriga nisbatan **100,7 %**ni tashkil etdi.




2020-yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 604 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **111,4 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **128,6 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **125,7 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **37,2 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	01.12.2019-yil	01.12.2020-yil	
Toshkent viloyati	3448	4052	117,5
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	159	184	115,7
Olmaliq	191	221	115,7
Angren	264	322	121,9
Bekobod	164	183	111,6
Ohangaron	110	121	110,0
Chirchiq	256	314	122,7
Yangiyo'l	103	104	101,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	89	102	114,6
Ohangaron	67	80	119,4
Bekobod	109	114	104,6
Bo'stonliq	130	151	116,2
Bo'ka	161	186	115,5
Quyichirchiq	81	98	121,0
Zangiota	261	297	113,8
Yuqorichirchiq	193	230	119,2
Qibray	335	408	121,8
Parkent	96	106	110,4
Piskent	71	87	122,5
O'rtachirchiq	183	232	126,8
Chinoz	108	138	127,7
Yangiyo'l	162	189	116,7
Toshkent	155	185	119,4



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.12.2020-yil holatiga ko'ra (ulushi %da)




Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,1 %), Angren (7,9 %) va Chirchiq shaharlarida (7,7 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1099,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **117,1 %** oʻsish koʻrsatkiciga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 2,8 % punktga koʻpayib, **20,0 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **21,0 %**i yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan **132,8 %**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **14,0 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **167,9 %**) va Oʻrtachirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **5,0 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **383,1 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,5 %** to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,4 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **101,1 %**ni tashkil etgan holda **3378,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,5 %**ni tashkil etdi yoki **1018,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **86,6 %**ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **137,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi yoki 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **83,6** %ga teng bo'ldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5358,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **101,2** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **2,5** % va **97,5** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	5496,5	100,7	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	226,2	97,6	4,1
Olmaliq	243,5	100,9	4,4
Angren	231,0	98,5	4,2
Bekobod	229,0	100,0	4,2
Ohangaron	189,8	100,3	3,5
Chirchiq	262,7	96,9	4,8
Yangiyo'l	137,1	100,5	2,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	154,6	98,1	2,8
Ohangaron	151,9	98,6	2,8
Bekobod	153,5	100,3	2,8
Bo'stonliq	274,9	103,6	5,0
Bo'ka	145,7	97,0	2,7
Quyichirchiq	130,7	101,0	2,4
Zangiota	671,6	104,7	12,2
Yuqorichirchiq	362,8	100,7	6,6
Qibray	514,2	106,4	9,4
Parkent	314,3	100,3	5,7
Piskent	166,8	99,2	3,0
O'rtachirchiq	238,2	100,1	4,3
Chinoz	151,3	98,5	2,8
Yangiyo'l	204,5	89,8	3,7
Toshkent	342,2	103,8	6,1



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-noyabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Zangiota
671,6

2

Yuqorichirchiq
362,8

1

Qibray
514,2

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Chinoz
151,3

2

Yangiyo'l sh
137,1

1

Bo'ka
145,7

3



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70